

KICHIK YOSHDAGI BOLALARNING AXLOQIY TARBIYASINI  
SHAKLLANTIRISHDA O'YINLI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING RO'LI

Sobirova Bonu Matkarimovna

Urganch RANCH Texnologiya Universiteti Pedagogika mutaxassisligi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15492074>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasini shakllantirishda o'yinli pedagogik texnologiyalarining ahamiyati, ularning pedagogik jarayondagi funksiyasi va nufuzli pedagoglar tomonidan bildirilgan ilmiy-nazariy qarashlar asosida tahlil etilgan. Kichik yoshdagi bolalarni ijtimoiylashuviga qaratilgan turli qarashlar, metodlar ilmiy tadqiqotlarni nazariy hamda metodologik jihatdan ochib berilgan.

**Аннотация.** В статье анализируется значение игровых педагогических технологий в формировании нравственного воспитания детей раннего возраста, их функция в педагогическом процессе, а также научно-теоретические взгляды, высказанные авторитетными педагогами. В научных исследованиях изучаются различные подходы и методы, направленные на социализацию детей раннего возраста, как в теоретическом, так и в методическом плане.

**Abstract.** This article analyzes the importance of game pedagogical technologies in the formation of moral education of young children, their function in the pedagogical process, and the scientific and theoretical views expressed by influential educators. Various views and methods aimed at the socialization of young children are revealed from a theoretical and methodological perspective.

**Kalit so'zlar:** axloqiy tarbiya, o'yinli texnologiyalar, maktabgacha ta'lim, V. A. Suxomlinskiy, L. S. Vygotskiy, ijtimoiy muhit, shaxs tarbiyasi.

### Kirish

Kichik yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasi har qanday jamiyatda ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, bu davrda bola shaxsining asosi – qadriyatlar, munosabatlar va xulq-atvor me'yorlari shakllanadi.

Shu bois zamonaviy pedagogikada bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda o'yinli texnologiyalarining o'rni alohida e'tiborni talab qiladi. O'yin – bolalar hayotining ajralmas bo'lagi bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonida kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Bolalar o'yin faoliyati orqali borliqni anglaydilar, dunyoni kashf qiladilar.

### O'yin va axloqiy tarbiya o'rtasidagi bog'liqlik

Mashhur sovet pedagogi V. A. Suxomlinskiy "O'yin – bu bolalikning eng yorqin va samimiy ifodasidir. Agar biz bolada yaxshilik, mehribonlik va halollikni tarbiyalamoqchi bo'lsak, bu fazilatlarni o'yin orqali singdirishimiz kerak", degan edi. Bu fikr o'yin orqali axloqiy tarbiyaning samaradorligini ta'kidlaydi.

L. S. Vygotskiy esa o'yinning bola tafakkuri, ijtimoiy tajribasi va shaxsiy ongingin rivojida muhim omil ekanligini asoslab bergan. Unga ko'ra, o'yin ijtimoiy hayotga tayyorgarlik vazifasini o'taydi. Jumladan inson ulg'ayib, kamolga yetar ekan u jamiyatning ajralmas bo'lagiga aylanadi. U bu dunyoni shu qiziqarli o'yin faoliyatida anglaydi.

### O‘yinli pedagogik texnologiyalar turlari va ularning roli

1. Rol o‘yinlari – bolalarning turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali o‘zaro hurmat, yordam,adolat, to‘g‘rilik kabi axloqiy tushunchalarini o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Masalan, “do‘kondor va xaridor”, “ona va bola”, “shifokor va bemor” kabi o‘yinlar. Xususan, Bu kabi o‘yin turiga mansub “Avtobus-avtobus” o‘yini ham qiziqarli, ham sarguzashtlarga boy hamda eng asosiysi bola shaxsining ijtimoilashuviga turtki bo‘la oladigan o‘yinlar sirasiga kiradi.

2. Didaktik o‘yinlar – maxsus axloqiy vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlar orqali bolaning to‘g‘ri va noto‘g‘ri xatti-harakatni farqlashga o‘rgatadi. Masalan, “Bu yaxshi – bu yomon”, “Biz qanday do‘stmiz?”, “Kimga yordam berdik?”

3. Ertak asosida sahnalashtirish – ertaklardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali bola axloqiy baho berishga o‘rganadi. Bu usul G‘arb va Sharq pedagogikasida ham keng qo‘llaniladi.

Sharq mamlakatlriga mos “Ming bir kecha”, “Zumrad va qimmat”, “Yoriltosh”, “Oltin tarvuz”, “Ochילדasturxon” kabi ertaklar, G‘arb ertakchiligiga asosan, Aka-uka Grimmlar ertaklari, “Etik kiygan mushuk”, “Bo‘g‘irsoq” ertaklarini rollarga bo‘lib bolalarni sahnaga chorlashj ham uning estetikasini, xulq-atvorini ham ijobiy tarafga bursak arzirli bo‘lar edi.

4. Harakatli o‘yinlar – hamkorlikda harakat qilish, jamoa manfaatini hisobga olish, boshqalarga yo‘l berish kabi ijtimoiy-axloqiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bunda ko‘proq o‘quvchi shaxsini kichik guruxlarda ishlash qobiliyatini shakllantirishga asoslangan bo‘ladi.

### Pedagogning metodik yondashuvi

Pedagogik jarayonda o‘yinli texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash, ularni maqsadga muvofiq qo‘llash muhimdir. Z. M. Boguslavskaya ta’kidlashicha, “tarbiyaviy o‘yin faqat zavq emas, balki bolaning axloqiy kamoloti uchun muhim ijtimoiy darsdir.”

Pedagogning asosiy vazifasi – o‘yin jarayonida bolalar o‘rtasidagi munosabatni kuzatish, kerak bo‘lsa muvofiqlashtirish, baholash va o‘rnak bo‘lishdir. Bu orqali bola o‘zini boshqalarning o‘rniga qo‘yishni, empatiya qilishni o‘rganadi.

### Amaliy tavsiyalar

Har bir dars yoki mashg‘ulda kamida bitta axloqiy mazmunga ega o‘yinli faoliyat tashkil etish.

Bolalarning yosh xususiyatlariga mos o‘yin shakllarini tanlash.

O‘yinlarda baholovchi emas, ishtirokchi va yo‘naltiruvchi sifatida qatnashish.

Ijtimoiy holatlar asosida yaratilgan vaziyatli o‘yinlar orqali bolalarni mustaqil axloqiy qaror qabul qilishga undash.

### Xulosa

O‘yinli pedagogik texnologiyalar kichik yoshdagи bolalar axloqiy tarbiyasida eng samarali metodlardan biridir. Ular orqali bola ijtimoiy hayotga, jamiyatga, oilaga mos shaxs sifatida shakllanadi. V. A. Suxomlinskiy, L. S. Vygotskiy kabi buyuk pedagoglar ta’kidlaganidek, o‘yin bola uchun hayot mакtabidir. Pedagoglar esa bu maktabning ustoz va yo‘lboshchilari bo‘lib, o‘yinlar orqali bolani yaxshilik sari yetaklaydilar.

### REFERENCES

1. Suxomlinskiy V. A. “Yurakni bolalarga beraman”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
2. Vygotskiy L. S. “Bola psixologiyasi”. – Moskva: Pedagogika, 1984.

3. Boguslavskaya Z. M. "Didaktik o'yinlar tizimi". – Moskva, 1990.
4. Yuldasheva D.R. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya metodikasi".-Toshkent: 2021.
5. Abdurahmonova M. T. "Axloqiy tarbiya asoslari". – Samarqand: Ilm ziyo, 2020.